



## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI

**Shodiyev Akmal O'ktamjon o'g'li**,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi, Toshkent, O'zbekiston.  
Email: [akmalshodiyev98@gmail.com](mailto:akmalshodiyev98@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-6262-2894

**Xoliqova Dilnoza Botir qizi**,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali muxarriri  
Email: [dilnoza0781515@mail.com](mailto:dilnoza0781515@mail.com)

ORCID: 0009-0006-9213-8569

## FOREIGN EXPERIENCE IN IMPLEMENTING INFRASTRUCTURE PROJECTS BASED ON PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP

**Shodiyev Akmal O'ktamjon o'g'li**,  
Tashkent State University of Economics  
Independent researcher, Tashkent, Uzbekistan.  
E-mail: [akmalshodiyev98@gmail.com](mailto:akmalshodiyev98@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-6262-2894

**Kholikova Dilnoza Botir qizi**,  
employee of Tashkent State University of Economics  
Tashkent State University of Economics  
Editor of the scientific journal "International Finance and accounting"

Email: [dilnoza0781515@mail.com](mailto:dilnoza0781515@mail.com)

ORCID: 0009-0006-9213-8569

### **JEL Classification: H44F43**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola "Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning xorij tajribalari" mavzusiga bag'ishlanadi. Maqola xorijiy davlatlarning davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modellarini, ularning qonunchilik, iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini o'rganadi. Xususan, mazkur maqolada so'ngi yillarda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bo'yicha xorijiy tajribalari tahlil Xorijda va O'zbekistonda moliyalashtirilgan infratuzilma loyihalari va ularning samaradorligi hamda natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, Yevropa hamda Osiyo

mamlakatlarida olib borilayotgan islohotlar ya'ni davlat-xususiy sherikligining qay darajada rivojlanib istiqbolli loyihalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning tahlili va O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar ko'rsatkichlari tahlili amalga oshirilgan. Maqolaning asosiy maqsadi DXSH mexanizmini samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bundan tashqari, maqola DXSHning infratuzilma rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqadi va kelajakda DXSH bo'yicha yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi. Maqolada DXSH modelining afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, turli xil DXSH modellari va

muvaffaqiyatli DXSH loyihalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydigan omillar, masalan, aniq qonunchilik bazasi, shaffoflik va hisobdorlik, shartnomaviy shartlarni belgilash, xavflarni boshqarish va loyiha monitoringi taqdim etiladi. Maqolada xorijiy davlatlarda DXSH modeli orqali amalga oshirilgan muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz loyihalar misollari keltiriladi, Shuningdek, maqola bu tajribalar asosida O'zbekiston uchun mumkin bo'lgan strategik tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu yondashuv nafaqat davlat-xususiy sheriklik modelining samaradorligini oshirishga, balki keng ko'lamlı infratuzilma loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan.

**Abstract:** This article is devoted to the topic "Foreign experience in implementing infrastructure projects based on public-private partnership". The article examines the models of public-private partnership (PPP) of foreign countries, their legislative, economic and managerial mechanisms. In particular, this article analyzes foreign experience in implementing infrastructure projects based on the public-private partnership (PPP) model in recent years. Infrastructure projects financed abroad and in Uzbekistan, their effectiveness and results are analyzed. An analysis of reforms carried out in the countries of Europe and Asia was also conducted, that is, the level of development of public-private partnership and investments aimed at promising projects, as well as an analysis of the indicators of Uzbekistan and foreign countries. The main objective of the article is to develop recommendations for the effective implementation of the PPP mechanism. In addition, the document examines the impact of PPP on infrastructure development and helps to determine the future directions of PPP. The article presents the advantages and disadvantages of the PPP model, as well as various PPP models and factors that play an

important role in the implementation of successful PPP projects, such as a clear legal framework, transparency and accountability, contractual terms, risk management and project monitoring. The article presents examples of successful and unsuccessful projects implemented in foreign countries using the PPP model. The article also aims to develop possible strategic recommendations and proposals for Uzbekistan based on this experience. This approach is aimed not only at increasing the effectiveness of the public-private partnership model, but also at ensuring the successful implementation of large-scale infrastructure projects.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, yalpi ichki maxsulot, xususiy sektor, infratuzilma loyihalari.

**Key words:** investment, public-private partnership, infrastructure, gross domestic product, private sector, infrastructure projects.

**Kirish.** Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tizimi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda global miqyosda keng qo'llanilayotgan samarali yondashuvlardan biri sifatida tanilgan. DXSH, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydigan model bo'lib, bu ikki sektordan har birining kuchli tomonlaridan foydalanish imkonini beradi. Xususiy sektorning texnik bilimlari, innovatsion yondashuvlari va moliyaviy resurslari bilan davlat sektorining tartibga solish, rejalashtirish va strategik boshqaruvdagi tajribasi birlashtiriladi. Bu yondashuv, infratuzilma loyihalarining samaradorligini, sifatini va barqarorligini oshirishga yordam beradi.

DXSH modelining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan sharoitlar va tizimlar, davlat va xususiy sektordagi ishtirokchilarning o'zaro hamkorlikdagi muvofiqlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Xorijiy tajribalar bu jarayonni qanday amalga oshirish va uni qanday

muvaffaqiyatli boshqarish mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning tajribalari orqali DXSH asosida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalaridagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar olish mumkin.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiyalar, davlat-xususiy sherikligi va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning zarur sharti sifatida e'tirof etilgan [1].

DXSH ko'plab davlatlarda turli xil muvaffaqiyatlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu konsepsiya rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, shuningdek, xususiy sektor va davlat o'rtasidagi samarali o'zaro munosabatlarning yaxshi tashkil etilgan an'alarida keng tarqalgan. Broq, umumiy qarashlarning o'xshashligiga qaramasdan, turli mamlakatlarda DXSHni tashkil qilishda ma'lum tafovutlar mavjud.

**Material va metod.** Dunyoda davlat-xusuiy sherikligini birinchilardan bo'lib keng tadqiq qilgan xorijlik olim E.R.Yeskombning fikricha "DXSH – bu davlat sektori tomonidan infratuzilma obyektlarini sotib olishning (davlat xaridlari) muqobil shakli bo'lib, davlat qarz mablag'lari yoki soliq tushumlaridan moliyalashtiriladi" [2]. Xorijlik olim ushbu ta'rifda DXSH asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini nazarda tutgan.

Yana bir xorijlik olim, Buyuk Britaniyada DXSH markazi boshqaruvchisi M.B.Gerard: "DXSHni – davlat va xususiy sektor xo'jaliklari doirasida milliy lashtirilmagan hamda xusuiy lashtirilmagan ko'rinishda tashkil qilinishi va faoliyat yuritishi haqida aytib o'tadi. Siyosiy jihatdan DXSH aholiga jamoat

xizmatlarini ko'rsatishning yangi uchinchi usulini namoyon qiladi" [3], deb ta'kidlaydi. Bu yerda olim davlat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat xaridi va xusuiy lashtirishning uchinchi usuli sifatida DXSHni ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mamlakatimizda ham investitsion jozibadorlikni oshirish hamda malmalaktidagi investitsion muhitni jahon tajribalari asosida yuksaltirish, xususan Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda Davlat-xususiy sherikligining roli E.Nosirov, S.Yunusova, A.Shomirov, O.Astanak, J.Razzaqovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ham yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklar Davlat byudjeti mablag'larining samarali yo'naltirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, provardida loyihalarni moliyalashtirishda davlat xususiy sherikligini (DXSH) rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Davlat xususiy sherikligi nafaqat davlat balki aholi turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy siyosat va xususiy sektorga foyda keltiruvchi omil hisoblanadi. Bu hukumat nuqtai nazaridan tavakkalchilikni yumshatish va loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimolini oshirishga yordam beradi. DXSHlarning yana bir afzalligi shundaki, ular xususiy sektordan yangi texnologiyalar va tajribaga kirishni ta'minlay oladi. Xususiy kompaniyalar DXSH shartnomasini tuzganda, ular ko'pincha o'zlarining noyob ko'nikmalari va bilimlarini loyihaga olib kelishadi. Bu samaradorlikni oshirish, loyihani boshqarish va yuqori sifatli natijalarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xusuiy sheriklik munosabatlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yirik infratuzilma loyihalarini samarali amalga oshirish mamlakat ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda katta

ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Bu Borada rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o'rganish va ulardagi amaliyotlarni mamlakatimizga joriy etish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chet davlatlarda davlat-xusuiy sheriklik mexanizmi uzoq vaqtdan beri amalga oshirilib kelinmoqda va doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar kabi O'zbekistonning ham eng muhim infratuzilma loyihalariga sarflashi mumkin bo'lgan mablag'lari cheklangan, xususiy sektor kapitalini tadbiiq qilish orqali mamlakatda yirik infratuzilma loyihalarini rivojlantirishni rag'batlantirish va shu bilan birga biznes muhitini va aholi turmush sifatini yaxshilash mumkin.

Byudjet mablag'lari taqchilligi sharoitida davlat organlari infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun byujetdan tashqari mablag'larni jalb qilish imkonini beruvchi yangi manbalarni izlashga urinadi.

So'ngi yillarda pandemiya va bir qator tabiiy ofatlarga qarshi olib borilayotgan kurash tufayli inson hayoti va sog'lig'iga, shuningdek, atrof-muhit holati barqarorligi va sifatiga bog'liq bo'lgan, tabiiy hodisalarga chidamli, yuqori sifatli infratuzilma obyektlarini yaratish dolzarb vazifaga aylandi.

Hozirgi jahon amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ham infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xusuiy sherikligi muhim ahamiyat kasb etmoqda buni quyidagi tahlillar jarayonida ham ko'rishimiz mumkin.

Infratuzilmaga xususiy sektor investitsiyalari yoki infratuzilmada xususiy ishtiroki (DXSH) 2023 yilda 86,0 milliard dollarni tashkil etdi. Garchi investitsiya hajmi bo'yicha bu 2022-yildagi 91,3 milliard dollar darajasidan kamaygan bo'lsa-da, 2023-yilda loyihalar soni sezilarli darajada ko'paydi va 2022-yildagi 260 ta loyihadan 2023-yilda 322 ta loyihaga ko'tarildi[4].

2023 yilda DXSH investitsiyalari 86,0 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa barcha past va o'rta daromadli mamlakatlar YaIMning 0,2% ni tashkil qiladi (38,8 trillion dollar) tashkil etadi. Garchi bu 2022 yildagi 91,3 milliard dollardan biroz pasaygan bo'lsa-da, 2023 yilda jami majburiyatlar avvalgi besh yillik (2018-2022 yillar) 85,5 milliard dollardan biroz oshib ketdi. Loyihalar soni bo'yicha 2023-yilda 2022-yildagi 260 ta loyihadan 2023-yilda 322 ta loyihaga sezilarli tez sur'atda o'sish kuzatildi, bu ko'rsatkich oldingi besh yillik o'rtacha 305 ta loyihadan ko'proqdir.

**1-jadval**

<b>Mintaqa</b>	<b>Infratuzilmada davlat-xusuiy sheriklik (million dollar)</b>	<b>Loyihalar soni</b>	<b>DXSH/YaIM</b>
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	51,445.17	73	0.24%
Yevropa va Markaziy Osiyo	4,139.49	35	0.10%
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	15,809.68	102	0.30%
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	2,888.39	14	0.17%
Janubiy Osiyo	8,258.91	32	0.19%
Afrika	3,465.26	66	0.17%

## 2023 yil holatiga ko'ra Mintaqalarda infratuzilmada davlat-xususiy sheriklik(DXSH) YaIM bo'yicha olinganda (yuqori daromadli davlatlar bundan mustasno)<sup>1</sup>

Lotin Amerikasi va Karib dengizida mintaqaviy yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2023-yilda DXSH investitsiyalari bo'yicha 0,3 foizda ya'ni eng yuqori qiymatga ega bo'lib qoldi lekin o'tgan yilgi 24,3 milliard dollarga nisbatan 42 foizga keskin pasayib, 15,8 milliard dollarga tushdi. Shu bilan birga, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida investitsiya majburiyatlari darajasi 51,4 milliard dollarga,

2022 yilga nisbatan 43,4 milliard dollarga yoki 0,24 foizga oshgani xabar qilindi. Janubiy Osiyo 2023-yilda DXSH investitsiyalari YaIMning 0,19 foizini tashkil etdi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika esa investitsiya darajasini mintaqaviy YaIMning 0,17 foizigacha oshirdi. Yevropa va Markaziy Osiyoda DXSH investitsiyalarining YaIMga nisbatan eng past darajasi 0,10 foizni tashkil etdi.

2-jadval

Davlatlar	2023 yilda DXSH asosida investitsiyalar	Loyihalar soni
Xitoy	40,383	37
FiliDXSHn	7,574	17
Indoneziya	1,762	8
Kambodja	450	2
Malayziya	131	3
Vetnam	95	2
Tailand	90	2
Papua-Yangi Gvineya	1	1
<b>Umumiy</b>	<b>51,445</b>	<b>73</b>

## 2023 yilga nisbatan Sharqiy Osiyo va Tinch okeanidagi mamlakatlarning davlat-xususiy sheriklik ishtirokida investitsion majburiyatlar va infratuzilma loyihalari soni<sup>2</sup>

Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida DXSH asosida amalga oshirilgan loyihalar tahlili.

2023-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida 35 ta loyiha bo'yicha 4,1 milliard dollarlik investitsiya loyihalari amaloga

oshirildi, bu 2022 yildagi 4,0 milliard dollardan to'rt foizga ko'pdir. Biroq, ushbu ko'rsatgich o'tgan besh yillik o'rtacha ko'rsatkichdan 48 foizga kamaygan. 2023 yilda amalga oshirilgan loyihalar soni 2022-yildagi 15 tadan 35 taga yetdi.

3-jadval

Davlatlar	2023 yilda DXSH asosida investitsiyalar	Loyihalar soni
O'zbekiston	1,612	6
Bolgariya	532	13
Bosniya va Gertsegovina	495	2
Turkiya	434	4
Ozarbayjon	348	1
Qozog'iston	219	4

<sup>1</sup> Jahon bankining 2023 yillik hisobotlari asoda muallif tomonidan tuzildi

<sup>2</sup> Jahon bankining 2023 yillik hisobotlari asoda muallif tomonidan tuzildi

Albaniya	187	2
Serbiya	169	1
Qirg'iziston Respublikasi	118	1
Armaniston	26	1
<b>Umumiy</b>	<b>4,139</b>	<b>35</b>

**2023 yilga nisbatan Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarning davlat-xususiy sheriklik ishtirokida investitsion majburiyatlar va infratuzilma loyihalari soni<sup>3</sup>**

O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasiga oltita loyiha bo'yicha 1,6 milliard dollar sarmoya kiritdi, eng yirik loyiha Andijon quyosh PV zavodi bo'lib, qiymati 400 million dollarga teng. Mamlakatda moliyaviy yopilishga erishgan oltita loyihaning barchasida xorijlik homiylik bor edi. Ularning aksariyatiga Birlashgan Arab Amirliklari homiylik qilgan, Saudiya Arabistoni va Xitoy esa bittadan loyihaga homiylik qilgan. Bolgariya 13 ta loyihaga 532 million dollar sarmoya kiritgan holda mintaqaning investitsiya majburiyatlariga ikkinchi eng katta hissa qo'shgan davlat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu 13 loyihadan sakkiztasi maishiy chiqindilar sektoriga tegishli bo'lgan.

DXSH tranzaksiyalari bo'lgan boshqa Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari Albaniya, Armaniston, Ozarbayjon, Bosniya va Gertsegovina, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Serbiya va Turkiya davlatlarini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda investitsiya jarayonlari 2023 yilda 2022 yilga qaraganda 91,3 mlr AQSH dollaridan 5 % ga kmaydi ya'ni 86,0 mlr AQSH dollarini tashkil etdi. DXSH asosida loyihalarni moliyalashtirish 2022 yilga

nisbatan 1% ga o'sib 2023 yilda 54tadan 68 ta davlatga yetdi va o'rtacha 85,5 mlrd AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, MDH davlatlarida qolaversa Yevropa davlatlarida so'ngi 10 yil mobaynida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda keng ko'lamda joriy etilmoqda. Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va ko'plab Yevropa mamlakatlarida davlat-xususiy sherikligining turli modellari energetika, transport va ijtimoiy infratuzilma yo'nalishlarida investitsion loyihalarni amalga oshirishda ma'lum tajriba to'plandi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llashga ko'maklashish maqsadida Rossiya va Qozog'istonda maxsus DXSH markazlari tashkil etilgan bo'lib, manfaatdor tomonlarga maslahatlar ko'rsatish, loyiha xujjatlarini ishlab chiqish, loyihalar bazasini shakillantirish va o'quv kurslari tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz joizki, O'zbekistonda ham infratuzilma loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik rolini kuchaytirish va ahamiyatini oshirish yuzasidan chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq

<sup>3</sup> Jahon bankining 2023 yillik hisobotlari asoda muallif tomonidan tuzildi



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son
2. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования / Э. Р. Йескомб ; Пер. с англ. — М. : Альпина Паблишер, 2015. — 457 с. С. 24
3. Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations?//Finance & Development. 2001. Vol.38. № 3.P.107
4. Private Participation in Infrastructure (PPI) 2023 annual report p-4
5. Государственно-частное партнерство: Основные принципы финансирования / Э. Р. Йескомб ; Пер. с англ. — М. : Альпина Паблишер, 2015. — 457 с. С. 24
6. Gerrard M.B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations?//Finance & Development. 2001. Vol.38. № 3.P.107
7. Агазарян Н.В. Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства // Государственно-частное партнерство. — 2016. — Т. 3. — № 2. — С. 151–172. — doi: 10.18334/ppp.3.2.37071
8. Юсупов Н.А., Карабаев Ф.Э., Обломуродов Н.Н. "Теория и практика государственно-частного партнерства" учебный модуль. Ташкент-2013. С.6